MAHALLIY O'SIMLIK XOMASHYOLARINING SAFRO HAYDOVCHI HUSUSIYATLARI

Fayzullayev J.Sh., Mamatqulov Z.U.
Toshkent farmasevtika instituti, Toshkent sh., O'zbekiston Respublikasi
Email-mzu_77@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.10682759

Olib borilgan taqdiqotlar natijasida mahalliy o'simliklardan tashkil topgan mahsulotlarning safro haydovchi hususiyatlari ijobiy ekanligi namoyon bo'ldi. Itburun namatak (Rosa canina L.) o'simligidan bugungi kunga kelib juda ham ko'p miqdordagi har xil turdagi dori turlari ajratib olingan. Xususan Namangan muhandislik insituti olimlari Rahimova Z.B. va boshqalar hamkorlikda Namatak mevasidan "Shirin hayot" siropini tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqishgan. Bundan tashqari Oddiy dastarbosh o'simligidan ham har hil dori vositalari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Itburun na'matak, Dastarbosh, BFQ, tahlil, dori vositasi, quruq ekstrakt, mikro va makro elementlar.

Kirish. Ohirgi yillarda tibbiyotda o'simlik xomashyolari asosida olingan dori vositalarining ulushi yildan yilga ortib bormoqda va bugungi kunga kelib 60% dan ko'proqni tashkil qiladi. O'simliklardan olingan dorilarga talabni oshib borishining asosiy sabablaridan biri ularning organizmga yumshoq ta'sir ko'rsatishi, kam hollarda nojo'ya ta'sirni namoyon qilishi hamda arzonligini keltirish mumkin .

Dastorbosh (Tanacetum)-qoqidoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'tlar turkumi. O'zbekistonda 2 turi: oddiy D. (T. vulgare) va tog' D. (T. pseudoachillea S.) uchraydi. Oddiy D. bo'yi 150 sm gacha bo'lgan sershox o'simlik. Barglari patsimon, bandli va bandsiz. Gullari sariq, qalqonsimon to'pgul. Mevasi — pista. To'pguli tarkibida efir moyi, alkaloidlar, flavonoidlar va b. moddalar bor. To'p-gulining damlamasi va poroshogi gijja haydashda, gepatit, an-gioxolit va ichak kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Hozirda rasmiy tibbiyotga ham keng qo'llanilmoqda [2]. Na'matak (Rosa) — ra'nodoshlar oilasiga mansub butalar turkumi. Bo'yi 3 m cha. Bargi tok, patsimon murakkab, poyada ketma-ket joylashadi. Guli xushbo'y, rangi har xil, yakka yoki 2—3 tadan o'rnashgan. Mevasi shirali, shakli va rangi har xil, gul o'rnidagi soxta meva ichida tukli, bir urug'li yong'oqchalar joylashgan. N. turlari bir-biridan mevasining shakli, katta-kichikligi, rangi, novda po'stlog'ining rangi hamda novdadagi tikanlarning oz-ko'pligi va joylanishiga qarab farqlanadi. N. o'rmonlarda ariq yoqalarida, butalar orasida, tog' yon bag'irlarida o'sadi. Guli chiroyli turlari bog'larda, xiyobonlarda va ko'chalarda o'stiriladi.Itburun na'matak (R. canina) mevasida 4—6%, ba'zan 18% cha C, B2, K, B oilasi vitaminlari, 18 mg% cha karotin, 18% cha qand, 2% cha limon kislota, oshlovchi va boshqa moddalar bo'lib, tibbiyotda avitaminozning oldini olish va davolashda qo'llanadi. N.ning manzarali turlari — atirgullardan olinadigan xushbo'y efir moyi (atirgul moyi), asosan, parfyumeriyada, undan tayyorlanadigan atirgul suvi (Aqua Rosae) farmatsevtikada dorilarning hidi va mazasini yaxshilash uchun ishlatiladi [3].

Tadqiqot materiallari. *Tanacetum vulgare* o'simligi ko'p dorivorlik xossalarini jamlagani tufayli yurtimizdagi ko'plab hududlarda ekib o'stirilmoqda. *Tanacetum vulgare* o'simligi tarkibida asossan tashkil etuvchi moddalari sifatida efir moylari va seskviterpenlar bo'lsa ham ushbu o'simlik tarkibida bir qancha fenol birikmalari hamda oshlovchi moddalar ham mavjud. Ushbu o'simlikning gullari va barglari asosiy xom ashyo sifatida ishlatilinadi. Ushbu doirvor o'simlikning barglaridan quruq ekstrakt ajratib olinganda ekstraktiv moddalari chiqish unumi

18 dan 20 foizgachani tashkil qilgan bo'lsa gullaridan ushbu ko'rsatkich 8 dan 16 foizgachani tashkil etdi. O'simlik gullari tarkibidagi organik kislotalar, efir moylari, glikozidlar, taninlar, fitonsidlar miqdori yuqori bo'lganligi sababli maksimal darajada foydalaniladi [4]. Itburun na'matak tarkibida esa bir qancha turdagi doirvor hususiyatligini tam'inlaydigan bir qancha kimyoviy moddalar bor hususan vitaminlar, tokoferol, karotinlar hamda bir qancha mikro va makroelementlar mavjud [4].

Tadqiqot natijalari. Itburun na'matakning juda yaxshi shifobaxsh xususiyatga egaligi, ko'pgina dardlarga davo bo'lib, ko'ngilga orom beruvchi xususiyati qadimdan ma'lum bo'lgan. Tabiblar undan peshob xaydashda, immunitetni ko'tarishda dori sifatida foydalanishgan. Bundan tashqari itburun na'matakni gepatit, xoletsistit, me'da yara kasalligi, gipertoniya, siydik-tosh kasalliklarini ham davolashda ishlatishgan. Tomoq og'rig'i, tish atrofidagi to'qimalar kasalliklarini davolash uchun na'matakdan tayyorlanadigan har xil dorilar buyurilgan. Dastarbosh o'simligi qadimdan antigelmentlik, gipertensiyaga qarshi, antidiabetlik, buyrak kasalliklarida hamda yallig'lanishga qarshi kabi hususiyatlari borligi ma'lum. Bundan tashqari ushbu o'simlik oshqozon ichak trakti kasalliklarida juda ham foydali ekanligi ma'lum.

Shuningdek ushbu ikki safro haydovchi o'simliklar tarkibida: Bor (B), Fosfor (P), Temir (Fe), Kaliy (K) , Simob (Hg) , Rux (Zn) , Kalsiy (Ca) , Marganets (Mn) , Natriy (Na), Magniy (Mg) , Kumush (Ag) kabi makro-mikro elementlar mavjud bo'lib, ular inson organizmi uchun zarur bo'lgan elementlar hisoblanadi hamda organizmga dori moddalari so'rilishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Natijalar muhokamasi: Olingan natijalarga asoslanib, Itburun na'matak hamda dastarbosh dorivor o'simliklarini shifobaxsh hususiyatlarini inobatga olib, zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda ushbu o'simlik asosida turli dori turlarini yaratish, hamda import o'rnini bosuvchi dori vositalarni ishlab chiqarish farmatsevtika bozorini boyitishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.https://cyberleninka.ru/article/n/namatak-mevasidan-shirin-ayot-siropini-tayyorlash-tehnologiyasi/viewer.

2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Dastorbosh

3. Coté H, Boucher MA, Pichette A, Legault J. Anti-Inflammatory, Antioxidant, Antibiotic, and Cytotoxic Activities of Tanacetum vulgare L. Essential Oil and Its Constituents. Medicines (Basel). 2017 May 25;4(2):34. doi: 10.3390/medicines4020034. PMID: 28930249; PMCID: PMC5590070.

4.Šukele R, Lauberte L, Kovalcuka L, Logviss K, Bārzdiņa A, Brangule A, Horváth ZM, Bandere D. Chemical Profiling and Antioxidant Activity of Tanacetum vulgare L. Wild-Growing in Latvia. Plants (Basel). 2023 May 12;12(10):1968. doi: 10.3390/plants12101968. PMID: 37653885; PMCID: PMC10221018.